
Rishton tuman IIB «Uch avlod uchrashuvi» o'tkazildi

Prezidentimizning "Keksa avlod vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda ularning ijtimoiy faolligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga asosan ichki ishlar tizimida xizmat qilgan faxriylar, keksa avlod vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning hayotini yuqori darajaga ko'tarish va ijtimoiy faolliklarini yanada oshirish maqsadida tashkil etilgan tadbirda Rishton tumani hokimi Bahodirjon Xoliqov ham ishtirok etdi.

Bayramona bezatilgan dasturxon atrofida turli avlod vakillari o'zaro suhbat qurib, yoshlar faxriylarning maslahatlari, o'gitlaridan bahramand bo'ldilar.

Tadbir so'nggida bir qator faxriylar nafaqaga tantanali kuzatilib, o'z faoliyatida yuksak natijalarga erishayotgan profilaktika inspektorlari rag'batlantiruvchi mukofotlar bilan taqdirlandilar.

2024-08-06 11:02:20